



## FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA SHAHAR HOKIMINING FARMOYISHI

2024-yil 6-noyabr

324-11-169-F/24

Farg'ona shahar hokimligi

### O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'ttiz ikki yilligini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi F-53-son farmoyishiga asosan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'ttiz ikki yilligini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash, asosiy qonunimizda belgilangan xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik kabi ezgu g'oyalar atrofida fuqarolarni jiplashtirish, "**Konstitutsiya - erkin va farovon hayot garovi!**" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish maqsadida

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi 2024-yil 17-oktabr kunidagi F-53-son hamda Farg'ona viloyati hokimining 2024-yil 23-oktabr kunidagi 348-11-0F/24-son farmoyishlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur farmoyish bilan:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha shahar tashkiliy qo'mitasi (*keyingi o'rinlarda - Tashkiliy qo'mita*) tarkibi **1-ilovaga muvofiq**;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan bayram tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi (*keyingi o'rinlarda - Dastur*) **2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin**.

3. Shahar tashkiliy qo'mita a'zolari:

Dasturda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning samarali bajarilishi hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramining shaharning barcha mahallalarida nishonlanishini ta'minlasin;

bunda, barcha hududlarda aholining keng qatlamlari o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, ochiq muloqot va suhbatlar, badiiy kechalar, festivallar, sayllar, madaniyat

va sport tadbirlarini samarali o'tkazish maqsadida atoqli ilm-fan namoyandalari, madaniyat va san'at arboblari, keksa va yosh avlod vakillari, taniqli sportchilarni jalb etgan holda bayram tadbirlarini amalga oshirsin.

4. Farg'ona shahar hokimining o'rinbosari Y.Yusupov, Ma'naviyat va ma'rifat markazi Farg'ona shahar bo'linmasi (A.Soyibnazarov), O'zbekiston mahallalari uyushmasi Farg'ona shahar bo'limi (R.To'raqulov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (N.Irgasheva), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi bilan birga joylarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramini bugungi davr ruhiga hamohang tarzda nishonlash maqsadida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish:

yangilangan Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyati va "O'zbekiston - 2030" strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlari doirasida belgilangan tub islohotlar haqida mahallalar, ta'lim va mehnat jamoalarida ma'rifiy uchrashuv va suhbatlar o'tkazish;

so'nggi yillarda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy hayotning turli sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va bu borada erishilayotgan natijalarni mustahkamlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning o'rni va rolini yoritish;

**"Konstitutsiya - erkin va farovon hayot garovi!"** degan hayotiy shiorning mohiyati va ahamiyatini, yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida inson huquq va erkinliklari sohasida mutlaqo yangi bosqichga o'tilganligini ochib berish;

mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini ta'minlash, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat, san'at, sport sohalarini rivojlantirish, nuroniylar, xotin-qizlar va yoshlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, oila, onalik, bolalik va otalikni himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyatini keng targ'ib qilish;

"Konstitutsiya oyligi" doirasida umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlarida barcha o'quvchi va talabalarni qamrab olgan holda Konstitutsiya darslarini o'tkazish choralarini ko'rish vazifalari topshirilsin.

5. Farg'ona shahar hokimining birinchi o'rinbosari B.Mo'minov, Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Berdiqulov) bilan birgalikda o'tkaziladigan bayram tadbirlari uchun mablag'larni mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari, tashkilot va idoralarning byudjetdan tashqari mablag'lari, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan ajratish choralarini ko'rsin.

6. Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati (I.Omonboyev), "Ruxsor" teleradiokanali (N.Asqarov), "Farg'ona tongi" gazetasi (A.Soyibnazarov):

ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Farg‘ona shahar hokimi**



**V.Nazarov**

Fargʻona shahar hokimining  
2024-yil 6-noyabrdagi  
324-11-169-F/24-son farmoyishiga  
1-ilova

**Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga  
tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish boʻyicha shahar tashkiliy qoʻmitasi**

**T A R K I B I**

<b>№</b>	<b>Ismi-familiyasi</b>		<b>Egallab turgan lavozimi</b>
1.	V.Nazarov	—	Fargʻona shahar hokimi - Tashkiliy qoʻmita raisi
2.	Y.Yusupov	—	Fargʻona shahar hokimining oʻrinbosari, Tashkiliy qoʻmita raisi oʻrinbosari
3.	A.Mirzayev	—	Fargʻona shahar IIO FMB boshligʻi
4.	A.Oripov	—	Favqulodda vaziyatlar boʻlimi boshligʻi
5.	I.Tuychiyev	—	Milliy gvardiya Fargʻona shahar boʻlimi boshligʻi
6.	I.Omonboyev	—	Fargʻona shahar hokimligi Axborot xizmati rahbari, hokimning matbuot kotibi
7.	Lavozimga koʻra	—	Adliya boʻlimi boshligʻi
8.	A.Berdiqulov	—	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi
9.	A.Soyibnazarov	—	Maʼnaviyat va maʼrifat markazi Fargʻona shahar boʻlinmasi rahbari
10.	B.Nabiyev	—	Madaniyat boʻlimi boshligʻi
11.	N.Irgasheva	—	Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi boshligʻi
12.	X.Mamadjanov	—	Fargʻona shahar Tibbiyot birlashmasi boshligʻi
13.	N.Asqarov	—	“Ruxsor” teleradiokanali direktori
14.	S.Tursunaliyev	—	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi boshligʻi
15.	A.Akramov	—	Yoshlar ishlari agentligi Fargʻona shahar boʻlimi boshligʻi

**Izoh:** Tashkiliy qoʻmita aʼzolari boshqa ishga oʻtgan taqdirda, ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar tashkiliy qoʻmita tarkibiga kiritiladi.

Farg‘ona shahar hokimining  
2024-yil 6-noyabrdagi  
324-11-169-F/24-son farmoyishiga  
2-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag‘ishlangan bayram  
tadbirlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlari  
DASTURI**

<b>№</b>	<b>Amalga oshiriladigan tadbirlar</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Ijro uchun mas‘ullar</b>
<b>1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar</b>			
1.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi g‘oya va asosiy tamoyillarni o‘zida aks ettiruvchi ko‘rgazmali vositalarni (plakat, panno, videorolik va boshqalarni) tayyorlash;	2024-yil 20-noyabr	Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Farg‘ona shahar bo‘limi (A.Soyibnazarov)
2.	Ko‘rgazmali vositalarni shahar markazlari, shoh ko‘chalar, xiyobonlar, bayram tadbirlari o‘tadigan joylarda, tashqi reklama obyektlarida, xiyobonlarda, LED ekranli konstruksiyalarda, jamoat transportida (avtobus, poyezd, samolyot) va jamoat joylarida (bozor, supermarket, savdo shoxobchalari, bekat, aeroport va aviakassalar, temiryo‘l vokzallari va kassalari, avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari va boshqa) joylashtirish;	2024-yil 20-25-noyabr	Farg‘ona shahar hokimining o‘rinbosari Y.Yusupov, Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Farg‘ona shahar bo‘limi (A.Soyibnazarov) Transport boshqarmasi
3.	Davlat organlari hududiy bo‘linmalari, davlat xizmatlari markazlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari binolarining kirish joylarida “Konstitutsiya burchaklari”ni tashkil etish va ularda ushbu tashkilotlar faoliyati xususiyatidan kelib chiqib Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini yoritishga qaratilgan axborot bannerlarini joylashtirish;	2024-yil noyabr oyidan boshlab	O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Farg‘ona shahar bo‘limi (R.To‘raqulov)
4.	Olimlar, huquqshunoslar va mutaxassislardan iborat targ‘ibot guruhlarini shakllantirish va mehnat jamoalari, mahallalarda, olis va borish qiyin bo‘lgan aholi punktlarida, harbiy qismlarda, jazoni ijro etish muassasalarida Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini tushuntirish bo‘yicha uchrashuvlar, jonli muloqot, suhbatlar va boshqa madaniy-ma‘rifiy va xususiy targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish;	2024-yil noyabr-dekabr	Farg‘ona shahar IIO FMB (A.Mirzayev), Adliya bo‘limi

5.	“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - erkin va farovon hayot garovi” mavzusida aholining barcha qatlamlari o‘rtasida Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini targ‘ib etish ma‘rifat oyligini o‘tkazish;	2024-yil dekabr	Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Farg‘ona shahar bo‘limi (A.Soyibnazarov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Farg‘ona shahar bo‘limi (R.To‘raqulov)
6.	Mahallalarda, maktablar hovlilarida 6-dekabrda Konstitutsiya kuni munosabati bilan davlat bayrog‘ini ko‘tarish marosimini tashkil etish, unda Konstitutsiyadagi birdamlik g‘oyalari ifodalangan sahna ko‘rinishlari, she‘r va ashulalarni o‘z ichiga olgan tadbirlar tashkil etish.	2024-yil 6-dekabr	Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (N.Irgasheva), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Farg‘ona shahar bo‘limi (R.To‘raqulov), Yoshlar ishiari agentligi Farg‘ona shahar bo‘limi (A.Akramov)
<b>II. Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar va targ‘ibot-tashviqot ishlari</b>			
7.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun- mohiyatini, uning islohotlarga mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilayotganini targ‘ib qiluvchi maxsus ijtimoiy roliklar tayyorlash hamda ommaviy axborot vositalarida keng yoritish;	2024-yil 1-8-dekabr	Farg‘ona shahar hokimligi Axborot xizmati (I.Omonboyev), “Ruxsor” teleradiokanali (N.Asqarov),
8.	Ommaviy axborot vositalarida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatiga oid media tadbirlarini (maxsus ko‘rsatuv, press-klub, tok-shou, intervyu, reportaj, videorolik titr, radioeshittirish, maqola, viktorina va munosabatlar) amalga oshirish (alohida media reja asosida);	2024-yil noyabr-dekabr	Adliya bo‘limi, Farg‘ona shahar hokimligi Axborot xizmati (I.Omonboyev), “Ruxsor” teleradiokanali (N.Asqarov)
9.	“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – erkin va farovon hayot garovi” shiori ostida shahar markazlaridagi davlat organlari binolariga o‘quvchi va talabalarning sayohatlarini tashkil etish va ommaviy axborot vositalarida ularning taassurotlari haqida maqola va postlar berib borish;	2024-yil oktyabr-dekabr	Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (N.Irgasheva), Yoshlar ishiari agentligi Farg‘ona shahar bo‘limi (A.Akramov)
10.	Davlat va jamoat arboblari, aktyor, xonanda, mashhur sportchilar, bloger va faollarning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga Konstitutsiyaga oid munosabatlarni joylashtirish;	2024-yil 7-8-dekabr	Adliya bo‘limi, Madaniyat bo‘limi (B.Nabiyev), Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona shahar bo‘limi (A.Akramov), Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Farg‘ona shahar bo‘linmasi (A.Soyibnazarov), Farg‘ona shahar hokimligi Axborot xizmati (I.Omonboyev)

11.	“Mening Konstitutsiyam”, “Konstitutsiya kuni” xeshteglari ostida videoroliklar olish, ularni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish.	2024-yil 1-10-dekabr	Adliya bo‘limi, Farg‘ona shahar hokimligi Axborot xizmati (I.Omonboyev), “Ruxsor” teleradiokanali (N.Asqarov)
<b>III. “Konstitutsiya oyli” doirasida o‘tkaziladigan bayram va boshqa ko‘ngilochar tadbirlar</b>			
12.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag‘ishlab o‘tkaziladigan konsert tadbirlarini san‘at ustalari va yosh ijrochilar ishtirokida yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish;	2024-yil 7-dekabr	Farg‘ona shahar hokimining o‘rinbosari Y.Yusupov, Madaniyat bo‘limi (B.Nabiyev)
13.	Shaharda Konstitutsiya sayillarini tashkil etish, unda tomosha va bayram tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish;	2024-yil 4-7-dekabr	Madaniyat bo‘limi (B.Nabiyev)
14.	Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan sport marafonlari (yugurish, marsh) va musobaqalarini (volleybol, futbol, shaxmat va boshqalar) uyushtirish. Jahon, Osiyo va Olimpiya o‘yinlari g‘oliblari, ishtirokchilari bilan uchrashuvlar tashkil etish;	2024-yil 2-6-dekabr	Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona shahar bo‘limi (A.Akramov)
15.	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat tashkilotlarida “Mening Konstitutsiyam 32 yoshda” shiori ostida “Mening Konstitutsiyam va davlat tilim” mavzusida diktantlar tashkil etish;	2024-yil 1-8-dekabr	Adliya bo‘limi, Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (N.Irgasheva)
16.	Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida barcha o‘quvchi va talabalarni qamrab olgan holda Konstitutsiya darslarini o‘tkazish (namunaviy dars materiallari asosida);	2024-yil 2-6-dekabr	Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (N.Irgasheva)
17.	Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalari va tamoyillarini o‘rganish bo‘yicha olimpiada tashkil etish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish;	Har yili 1-7-dekabr	Adliya bo‘limi, Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (N.Irgasheva), Farg‘ona shahar hokimligi Axborot xizmati (I.Omonboyev), “Ruxsor” teleradiokanali (N.Asqarov)
18.	Maktab o‘quvchilari o‘rtasida “Xalq Konstitutsiyasi”, “Konstitutsiya - baxtimiz qomusi”, “Konstitutsiya bilimdoni”, “Konstitutsiya - kelajagim mash‘ali” mavzularida rasmlar va insholar tanlovini o‘tkazish va g‘oliblarni munosib taqdirlash.	2024-yil 2-6-dekabr	Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (N.Irgasheva),